

PAPER

TALABALARDA FONETIK KOMPETENSIYA VA IMAGINATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Kamola Tursunova^{1,*}

¹Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

*Kamola@gmail.com

Abstract

Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvazanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada ham aynan kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Key words: Ko'nikma, malaka, fonetika, uslubiyot, kompetentlik, kreativlik, nutqiy birlik, innovatsion yondashuv.

Kirish

Bugungi globallashtirish jarayonida til o'rganish nafaqat kommunikativ ehtiyojlar, balki madaniyatlararo muloqot va shaxsiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o'rganish jarayonida fonetik kompetensiya va imaginativ tafakkurni shakllantirish alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki fonetik kompetensiya tilning to'g'ri talaffuzi va ohangini o'zlashtirishni talab qilsa, imaginativ tafakkur esa talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologik tadqiqot fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rganishga bag'ishlanadi.

Mavzunig dolzarbligi

Til o'rganish jarayonida fonetik kompetensiyani shakllanishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki til faqatgina grammatika va lug'at boyligini egallash bilan cheklanmaydi, balki uni to'g'ri talaffuz qilish, ohang va urg'uni to'g'ri qo'llay olish ham katta ahamiyatga ega. Agar o'quvchilar fonetik jihatdan noto'g'ri talaffuz qilsa, ularning so'zlari tushunarsiz yoki noto'g'ri qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, fonetik kompetensiyani shakllantirish til o'rganish jarayonining ajralmas

qismi hisoblanadi.

Boshqa tomondan, imaginativ tafakkur talabalarning til o'rganishdagi ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu tafakkur turi orqali o'quvchilar so'z va iboralarini tasavvur qilish, ularni turli kontekstlarda qo'llash va ijodiy matnlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Til o'rganishda imaginativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar interfaol mashg'ulotlar, vizual va eshitish orqali qabul qilishga asoslangan texnikalar hamda dramatik mashqlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda til o'rganish jarayonida an'anaviy yondashuvlar ko'pincha faqat grammatik qoidalar va lug'at yodlash bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, fonetik kompetensiya va imaginativ tafakkur orqali tilni tabiiy o'zlashtirish va muloqot jarayonida erkin qo'llay olish mumkin. Ushbu tadqiqot fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslarini tahlil qilish, mavjud metodlarni o'rganish va samarali yondashuvlarni taklif qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodlari

Bugungi kunda ta'lim jarayonida fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat talabalar nutq madaniyatini rivojlantirish, balki ularning lingvistik bilimlarini chuqurlashtirish, erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Kommunikativ yondashuv, audiolingvistik usullar, dramatisatsiya va zamonaviy texnologiyalar yordamida fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni samarali rivojlantirish mumkin. Shu sababli, ushbu jarayonga e'tibor qaratish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish talabalar uchun juda foydali bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish va kreativ tafakkur orqali yangi yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda kommunikativ metodlar, audiolingvistik yondashuv, dramatisatsiya hamda zamonaviy texnologiyalar katta rol o'ynaydi. Shu bois, fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish talabalar uchun katta foyda keltiradi.

Fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni shakllantirish orqali talabalar nafaqat chet tillarini, balki ona tilini ham mukammal o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu jarayon muloqot madaniyatini oshirish, lingvistik bilimlarni chuqurlashtirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar yordamida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilishi va ta'lim jarayoniga joriy etilishi talabalar uchun juda foydali bo'ladi.

Fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon orqali talabalar o'z fikrlarini to'g'ri va ravon ifodalashni o'rganadilar. Bu esa ularning nafaqat til bilish darajasini oshirishga, balki umumiy tafakkur darajasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Metodik yondashuvlardan samarali foydalanish orqali fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni shakllantirish yanada samarali kechishi mumkin. Shu sababli, ushbu sohada maxsus dasturlar ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish talabalar uchun foydali bo'ladi. Bundan tashqari, fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirish jamiyatning umumiy savodxonligi va madaniy muloqot darajasini ham oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarning aniq va ravon so'zlash qobiliyatini rivojlantirish ularga akademik va kasbiy sohalarida ham muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar va ilg'or o'quv dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, fonetik kompetensiya va kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga joriy etish nafaqat talabalar, balki jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

natija va tahlillar

Oliy ta'lim tizimida an'anaviy dars mashg'ulotlari talabalar, xususan, bo'lajak mutaxassislariga bilim berish, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jumalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu esa bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi. Muammoga asoslangan ta'limda o'quv topshiriqlaridan asosan, savol va topshiriqlarning muhim

o'rne bor. Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi.

Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rne bilan mashqlar ham ishtirok etadi. Oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida o'quv topshiriqlarining qo'llanilishini mustazam deb bo'lmaydi, keyingi yillarda yaratilgan darslik va qo'llanmalar o'quv topshiriqlari asosida yaratila boshladi. Masalan, H.Jamolxonov tomonidan nashr qilingan Hozirgi o'zbek adabiytili darsligida mavzular so'ngida savol va topshiriqlar keltirilgan.

2000-yilga qadar yaratilgan oliy filologik ta'lim uchun yaratilgan o'quv adabiyotlarda o'quv topshiriqlari deyarli uchramaydi. Masalan, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullaevlarning 1992-yilchop etilgan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida umuman o'quv topshiriqlari berilmagan.

Bunda o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: –bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi; – bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi.

Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o'quv topshirig'i zamon talabiga mos va samarali bo'ladi: bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi; talabalarning o'quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi; o'quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi; o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak. Talabalarning fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga; nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnata oladigan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo'lishi lozim.

Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Taniqli olim M.Axmedova har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi, degan g'oyani ilg'or suradi. Haqiqatdan ham bu muammoning yechimi, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi: -muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivatsiyani ta'minlash; -har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash; -muammoni hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati; -talabalar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi. Bularning barchasi o'quv topshiriqlar mazmuniga bog'liq, o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi.

Bu borada I.Ya. Lerner, N.M. Skatkinlarning yondashuvi

hammaga ma'lum va mashhurdir. Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv sxemasi bo'yicha ishlash orqali talabalar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir. Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi:

tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv);

reproduktiv;

muammoli taqdimot;

qisman-qidiruv (xuaristik);

Tadqiqot. Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil yetadi;

talabalar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar. Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin. G. Hamroyevning e'tirofiga ko'ra "O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z talabalarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu -o'quv topshiriqlaridir [5]. An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; talabalar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezoni -bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takror takrorlash orqali ta'minlanadi. Masalan, 1.6-mashq. Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling.

Shu ma'noda savol va topshiriqlar ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qoladi. Muammoli ta'lim ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi.

Fonetik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat individual nutq madaniyatini shakllantiradi, balki ijtimoiy muloqot jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganishda fonetik kompetensiyaning rivojlanganligi o'rganilayotgan tilning tabiiyligini saqlashga va muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz nafaqat til o'rganayotgan shaxs uchun, balki u bilan muloqot qilayotgan shaxslar uchun ham qulaylik yaratadi. To'g'ri intonatsiya, urg'u va talaffuz qoidalariga rioya qilish orqali nutq aniq va tushunarli bo'ladi.

Imaginativ tafakkur esa ijodiy tafakkur shakllanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Talabalarda imaginativ tafakkurni rivojlantirish orqali ular real voqelikni tasavvur qilish, yangi yondashuvlarni shakllantirish, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qilishda muhim rol o'ynaydi. Imaginativ tafakkur orqali talabalar turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida ahamiyatli bo'lib, talabalar tilni o'zlashtirish jarayonida ko'proq kontekstual muloqotga kirishadilar.

Fonetik kompetensiya va imaginativ tafakkurni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanish zarur. Xususan, interfaol usullar, audio va video materiallardan foydalanish, fonetik o'yinlar, dramatisatsiya elementlarini qo'llash talabalar uchun katta foyda beradi. Shuningdek, lingvistik eksperimentlar o'tkazish, auditoriya va individual mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar tomonidan fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish va

ijodiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimediyalar resurslari, jumladan, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosida yaratilgan vositalardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olishini rag'batlantirish mumkin. Bunday texnologiyalar fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilishni interfaol mashqlar va diagnostik tahlillar orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim jarayonida fonetik kompetensiyani rivojlantirish va imaginativ tafakkurni shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu nafaqat talabalar bilim va ko'nikmalarining chuqurlashishiga, balki ularning nutq madaniyati va ijodiy tafakkurining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Kelajakda ta'lim jarayonida bu yo'nalishlarni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va lingvistik tadqiqotlar asosida yangi metodikalar ishlab chiqilishi lozim. Bunda individual yondashuv, differensial ta'lim va o'quv jarayonida talabalar ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, fonetik kompetensiya va imaginativ tafakkurni rivojlantirish bu faqat bir yo'nalishda cheklanib qolmaydigan, balki keng qamrovli pedagogik yondashuvni talab qiladigan muhim jarayondir. Ushbu masalalarni tizimli ravishda hal qilish orqali talabalarning muloqot qobiliyatini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

References

1. Abduazizov A.A. "O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi". Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Nurmonov A.N. "O'zbek tili fonologiyasi". Toshkent: Fan, 1990.
3. Gulomov A., Qodirov B. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent: O'qituvchi, 1998.
4. Qosimova K., Matchonova S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent: Nosir, 2009.
5. G'offorova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent: Tafakkur, 2011.
6. Azimova I., Mavlonova K., Qurbonov S., Shokir Tursun. "Ona tili va o'qish savodxonligi (2-sinf, 1-qism)". Toshkent: Yangi, 2021.
7. Nabiyeva D., Zokirova Z. "O'zbek tili fonetikasi (O'quv-uslubiy qo'llanma)". Andijon, 2016.